

KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOGIK OB'YEKTLARNI LOYIHALASHTIRISH TEXNOLOGIYASI.

Sirojiddinova Iroda Maxammadovna

Andijon mashinasozlik instituti

“Gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, p.f.n, dotsent,

Axliddinov Sirojiddin Faxriddin o'g'li

Sun'iy intellekt yo'nalishi 2- bosqich talabasi

Telefon: +998 91 605 89 99

El pochta: siroziddinovairoda@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik ob'yektlarni loyihalashtirish texnologiyasi, klasterli yondashuv asosida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini kompleks loyihalashtirish modeli hamda bo'lajak muhandislar kasbiy tayyorgarligini loyihalashtirish faoliyatining kompleksi yoritilgan.

Kalit so'zlar: klaster texnologiyasi, kasb-hunar ta'limi, modellashtirish, kompleks loyihalashtirish.

Pedagogik texnologiyalar nazariyasida loyihalashtirish faoliyatiga zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetentligi innovasion turi sifatida qaraladi va davlat ta'lim standartining amal qilishi sharoitlarida bu faoliyat o'qitish jarayonini tashkil qilishning sifat jihatdan yangi shakliga aylanadi. Loyihalashtirish faoliyatining umumiy algoritmiga ko'ra, birinchi bosqichda o'qitishning metodik tizimini loyihalashtirishning asosiy mumkin bo'lgan yo'nalishlarini aniqlash nazarda tutiladi. Islohot, modernizatsiya yoki shunchaki o'quv darslari soatlarini oddiy tarzda qisqartirishni bunday yo'nalishlar sifatida qarash mumkin. Ikkinchi bosqichda loyihalashtirish faoliyatining pedagogik nazarda tutilgan yo'nalishlarini amalga oshirish g'oyasini biror bir konsepsiya ko'rinishida ochib berish lozim bo'ladi. Uchinchi bosqichda ushbu konsepsiyani maqsadning aniq bayon qilinishi, jarayon sxemasini yaratish hamda uni amalga oshirish tamoyillarini aniqlashni taqozo etadi.

Loyihalashtirish faoliyatining birinchi bosqichi ekspert va tanlab olish tasodifiy metodlarni qo'llash asosida klaster markaziga yaqinlashuv turli darajalarining tuzilmaviy elementlari orasidagi o'zaro aloqa koeffitsiyentlarining raqamli qiymatlari aniqlanadi. Dasturiy klasterga ta'lim makonida loyihalashtirish faoliyatining matrisa shaklida ifodalangan ishchi maydoni sifatida qaraladi. Shu tariqa, ta'lim makonining har bir nuqtasida pedagogika fanlarining tuzilmaviy elementlari orasidagi o'zaro aloqa darajasining muayyan son qiymati beriladi. Aynan mana shu yerda pedagogik kasbi mutaxassisining kasbiy tayyorgarlik trayektoriyasini loyihalashtirish faoliyatining ikkinchi bosqichi boshlanadi.

Kasbiy ta'limi sharoitlarida o'qitishning metodik tizimi pedagogik ob'jektini

V.M.Monaxovning davlat ta'lim standarti talablarini o'qitish jarayonining mikromaqsadlari ko'rinishida berish haqidagi g'oyasi mavjud. [1]. Ushbu g'oya ta'lim kvalimetriyasining asosiy tamoyillariga to'la mos keladi va bu mikromaqsadlarga o'quv jarayonining mumkin bo'lgan eng kichik elementlari sifatida qarash imkonini beradi. Loyihaviy faoliyat jarayonida ushbu yondashuvni qo'llash uchun o'qitish metodik tizimini loyihalashtirishning yetti komponentli tizimini o'rganish zarur.

Didaktik vazifani qo'yish, birinchi navbatda, aniqlik va bir ma'nolilik bilan farq qilishi zarur bo'lgan maqsadni qo'yishni taqozo etadi. Ifodalangan maqsadni hisobga olgan holda ta'lim makonining passiv sub'yektlari bilan o'zaro munosabatlar shakllanadi.[2.3]. Bunda tahsil oluvchilar sub'yektlar rovida keladilar. "O'qituvchi" komponentida ifodalanadigan faol sub'yekt maqomini olish didaktik vazifani keyinchalik yechishning eng muhim elementi hisoblanadi. Didaktik vazifani qo'yishning yana bir komponenti o'quv fanining talabalarga, o'qituvchiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan va ko'p jihatdan o'quv jarayonining tashkiliy shakllarini belgilaydigan mazmuni hisoblanadi. L.V.Lvov ta'lim va kasbiy kompetensiyani shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqqan [4].

Pedagogik fanlarni o'qitishning metodik tizimiga tashkil qiluvchi komponentlarning omillar tahlili kiradi va bu ularni birlashtiruvchi ta'sir ko'rsatish omillarini aniqlash imkonini beradi. Didaktik vazifani ifodalaydigan komponentlarni taqqoslash bilan ishlaymiz (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

Didaktik vazifani ifodalaydigan komponentlarni taqqoslash

№	Juftliklar	Juftliklar mazmuni
1.	"maqsad-talaba" juftligi	talabalarning dasturiy materialni o'rganish maqsadga muvofiqligini anglashiga, ya'ni ta'limni davom ettirishga bo'lgan ichki motivatsiyalari va potensial imkoniyatlarining oshishiga olib kelishi zarur
2.	"maqsad-mazmun" juftligi	butun dasturiy materialning oldin rejalashtirilgan natijaga qaratilganligi nazarda tutiladi va bu o'quv jarayonini tashkil qilishga texnologik yondashuvni boshqalaridan farqlaydi. Binobarin, ikkinchi ta'sir qilish omili "texnologik" hisoblanadi
3.	"talaba-mazmun" juftligi	o'zining birlashtiruvchi omilini faqat o'quv jarayoni dasturiy materialni o'quv axborotini o'tkazib berishning muammoli metodi va uni motivasion vazifalarini bajarish jarayonida loyihalashtirish metodi orqali tushunish darajasida o'zlashtirishni taqozo etadi

Olingan ta'sir ko'rsatish omillari mahsuldor pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish tamoyillariga mos keladi va bunday texnologiyalarni talabalarning dasturiy materialni o'rganish maqsadga muvofiqligini anglaganliklari tufayli dasturiy materialni tushunchalar asosida tushunib o'zlashtirishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.[5,6,7]

Didaktik vazifani qo'yishning barcha komponentlari tarkibida: muammoli metod va loyihalar metodi, modulli va kvalimetrik texnologiyalar, o'quv jarayonini dasturiy-texnik ta'minoti mavjud axborot texnologiyalariga to'la mos keladi. Didaktik vazifani yechish komponentlarining omillari tahliliga o'tamiz. O'quv jarayoni, o'qituvchi va tashkiliy shakllar ushbu komponentlar qatoriga kiradi (2-jadvalga qarang):

2-jadval.

Didaktik vazifani yechish komponentlarining omillari

№	Juftliklar	Juftliklar mazmuni
1.	“o'quv jarayoni-o'qituvchi” juftligi	ikkala kontent ham qo'yilgan maqsadga erishishning vositasi ekanligi va ta'lim jarayonining texnologik mustaqilligini amalga oshirishi mumkin. Avvalgi komponentlar guruhi bilan rasman – mos kelishiga qaramasdan, “maqsadni” birlashtiruvchi ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida ko'rsatish mumkin
2.	“o'quv jarayoni-tashkiliy shakllar” juftligi	ta'lim jarayonining shunchaki nafaqat pirovard maqsadiga balki, uning mazmuniga ham bo'ysundirilgan. Didaktik vazifaning aynan ushbu komponenti o'quv jarayonini to'ldiradi va uni amalga oshirishning tashkiliy shakllarini belgilaydi. Binobarin, “mazmunni” birlashtiruvchi ta'sir ko'rsatuvchi omil deb hisoblaymiz
3.	“o'qituvchi-tashkiliy shakllar” juftligi	dasturiy materialni o'zlashtirish jarayonida o'quv jarayonining texnologik ta'minotini va talabalarning yuqori darajalariga erishishlarini amalga oshirishi zarur. Bu holda “talaba” birlashtiruvchi ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi

Demak, qo'yilgan didaktik vazifani yechish komponentlar omillari tahlili uning tarkibiy elementlariga qaratilganligiga olib keladi. [8,9,10]. Yuqorida maqsad, talaba va mazmun ushbu elementlar sifatida o'rganiladi. Bu funksional nuqtai nazardan o'qitish metodik tizimining komponentlari ikki guruhini bir-biriga to'la mos kelishini ko'rsatadi. Ta'lim jarayonini texnologik ta'minotdan iborat didaktik vazifani yechish uchun metodik tizimning barcha komponentlariga boshqaruvchi ta'sirlarni amalga oshirish zarur. Bunda o'qitishning hatto muvaffaqiyatli amal qiladigan har qanday metodik tizimiga boshqaruvchilik ta'siri

o'tkazish zarur. Agar boshqaruvchilik funksiyalari metodik tizim komponentlari orasida muvaffaqiyatli taqsimlangan bo'lsa, ularning ta'siri shunchaki sezilarli bo'lmaydi.[11].

Demak, pedagogik ob'yektlarni kompleks loyihalashtirish jarayonida o'quv jarayonining loyihalari, bo'lajak muhandisning kasbiy tayyorgarlik trayektoriyasi, o'qitishning metodik tizimi emas, balki loyihalashtirish faoliyatini ta'minlashning didaktik shart-sharoitlari hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Монахов В.М. Педагогические объекты. Педагогическое проектирование. Know How технологии. – М.: Тольятти, 2004.
2. Mahammadovna S. I. Features of Cluster Design in Modern Paradigms of Education //Telematique. – 2023. – Т. 22. – №. 01. – С. 348-355.
3. Сирожиддинова И. Методика смешанной отборки при комплексном проектировании профессиональной подготовки будущих инженеров //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 7/S. – С. 87-92.
4. Львов Л.В. Технология формирования учебно-профессиональной компетентности. – Челябинск: ЧГАУ; ЮУНОУ РАО, 2007.
5. MAHAMMADOVNA S. I. Taъlim jараёнини мониторинг тадқиқ қилиш учун таъхис материалларини ишлаб чиқиш //Results of National Scientific Research. – 2022.
6. Mahammadovna S. I. Improving the professional training of future engineers based on the cluster approach //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 3. – С. 45-47.
7. Sirojiddinova I. M. Engineering students have succeeded in creating a technology cluster // Pedagogy & Psychology Theory and practice International scientific journal № 5 (43), 2022 ISSN 2412-8201. Volgograd, 2022/ 22-25 <http://scippjournal.ru/archives 22-25 12>.
8. Насиров И. З., Сирожиддинова И. М. «Бузук телефон» педагогик технологияси асосида машғулотларни олиб бориш //Pedagog. – 2023. – Т. 6. – №. 2. – С. 291-298.
9. Zakirovich N. I., Mahammadovna S. I. Levels of development of human abilities //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 341-344.
10. Насиров, И. З., & Сирожиддинова, И. М. (2023). «Электрон конспект» педагогик технологияси асосида машғулотларни олиб бориш. *O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 2(19), 736-741.
11. Sirojiddinova I. M. Pedagogik ob'yektlarni kompleks loyihalashtirish texnologiyasi //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 4. – №. TMA Conference. – С. 298-302.